VOLUME 2, ISSUE 1, 2024

# BUXORO VILOYATI BUXORO SHAHARI 2021-2023 YILLARDA AMALGA OSHIRILGAN TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH JARAYONI

***Sardor Norboyev,HusanBo'riyev,JahongirYo'lchiboev***
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti " Moliya" fakulteti 86-guruh talabalari*

**Annotatsiya*:*** Ushbu maqolada Buxoro viloyati Buxoro shaharida 2021-2023 yillarda tashabbusli budjetlashtirish jarayoni, ajratilgan mablag'lar miqdori, amalga oshirilgan loyihalar talil qilingan.
**Kalit so'zlar*:*** Tashabbusli byudjet, openbudget.uz, tashabbus, ovoz berish, moderatsiya, ishchi komessiya, g'olib loyihani aniqlash, "Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi", shartnoma tuzish.

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.
Biz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o'rganish uchun Buxoro viloyati Buxoro shahari misolida 2021-2023-yillarda "Tashabbusli byudjet" loyihalari va ularning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishib chiqdik.
Quyidagi 1-jadvalda Buxoro viloyati Buxoro shaharida tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar qay tartibda taqsimlanishi va sarflanishini ko'rish mumkin.. 2021-yil tasabbuslarni moliyalastirish uchun 3 053 700 ming so'm ajratilgan, 2022-yilda esa qariyb 15 946 681ming so'm va 2023-yil 39 378 505 ming so'm miqdorida mablag'lar ajratilgan.

Jadval ma'lumotlar asosida qayd etish mumkinki, 2021-yil boshiga qoldiq yoq 2022-yil esa yil boshiga qoldiq 1 271 567 so'mni, 2023-yil 1 719 839 so'mni tashkil qilgan.
Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar 2021-yil 3 053 700 so'mni, 2022-yil 15 946 681so'mga oshganini, 2023-yilda esa 39 378 505 so'mga oshganini ko'rishimiz mumkin.

**1-jadval**

**Buxoro viloyati Buxoro shahari tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori**
(ming so'm)

| T/r | Ko'rsatkich nomi | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Yil boshiga qoldiq | | 1 271 567 | 1 719 839,9 |
| 2. | Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar | 3 053700 000 | 15 946 681 | 39 378 505,3 |
| 3. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan | 1780 133 000 | 15 498 408,2 | 37 724 787,0 |
| 3.1. | Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag' | 1719 092000 | 14 549 063,2 | 30 215 887,2 |
| 3.2. | Hisobvaraqlardagi qoldiq | 61 041000 | 949 345,0 | 7 508 899,80 |
| 4. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag' | 1273 567000 | 1 719 839,9 | 3 373 558,20 |

"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar esa 2021-yil 1 780 133 so'mni , 2022-yilda 15 498 408,2 so'mni, 2023-yilda esa 37 724 787 so'mni tashkil qiladi.
Ushbu ko'rsatgichlar asosida ko'radigan bo'lsak pul mablag'lar tashabbusli byudket loyihalariga yildan yilga oshib kelmoqda. Bu esa jamiyat va xalqimiz tomoidan berilayotgan maummo va masalalar ko'rib yechib kelinmoqda.

Quyidagi 2- jadvalda ko'rishimiz mukmkinki: 2021-2023 yillarda taklif etilgan loyihalar soni va ularga ajratilib sarflangan mablag'lar miqdori bilan tanishinib o'tishimiz mumkin.
Buxoro viloyati Buxoro shaharida tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlarda hududiy ichki yo'llarni ta'mirlashga mos ravishda 2021-yil 3 ta loyiha bo'yicha 1 397 724 ming so'm, 2022-yil 10 ta loyiha 10 509 000 ming so'm, 2023-yil uchun 22 ta loyiha 21 809 000 ming so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan.
Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash ishlari bo'yicha 2021-yilda loyiha yo'q, 2022-yilda 1 ta loyiha 416 000 ming so'm, 2023-yil uchun ham 1 ta loyiha 3 062 240 ming so'm pul mablag'lari maqsadli yo'naltirilgan.
Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash borasida olib borilgan ishlar ko'lami ham quyidagicha: 2022-yilda loyiha yo'q , 2023-yilda 1 ta loyiha bo'lgan

**2-jadval**

**Buxoro viloyati Buxoro shaharida tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar**

| T/r | Tadbirlar nomi | Moliyalashtirilgan takliflar soni | | | Sarflangan mablag‘ (ming so‘mda) | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
| **Jami** | | **10** | **40** | **46** | **1 719 092000** | **14549063,2** | **37724787.0** |
| 1. | Hududiy ichki yo‘llar | 2 | 4 | 0 | 446 123000 | 0 | |
| 2. | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash | 2 | 18 | 21 | 419 955000 | 1916691,3 | 14662787 |
| 3. | Maktabgacha ta’lim muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | 0 | 4 | 0 | 0 | 647563,3 | 0 |
| 4. | Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | 0 | 10 | 24 | 0 | 1487000,3 | 22562000.00 |
| 5. | Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta’mirlash va jihozlash | 1 | 0 | 1 | 100000000 | 3927601 | 500000.00 |
| 6. | Ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | |
| 7. | Ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish tadbirlari | 4 | 0 | 0 | 503 080 000 | 0 | |
| 8. | Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish) | 1 | 1 | 0 | 249 934 000 | 199857,5 | |
| 9. | Boshqa tadbirlar | 0 | 3 | 0 | 0 | 542278,8 | |

Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va jihozlash loyihalariga 2022-yil 10ta loyiha uchun 1487000,3 ming so’m, 2023-yil va 2021-yilda Sog‘liqni saqlashga mablag’ ajratilmagan, Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash , “Tashabbusli byudjet” da g’olib deb topilgan loyihalalariga 2021-yil 2 ta loyiha 419 955 ming so’m,( jami so’mani 39%ga teng) 2022-yilda 18 ta loyiha uchun1 916 691,3 ming so’m pul mablag’lari maqsadli yo’naltirilgan( jami so’mani 10% ni tashkil qilmoqda),2023-yilda bu ko’satgich 21ta loyihani qamrab olgan bitta yo’nalishda buning uchun 14 662 787 ming so’m pul mablag’ maqsadli yo’naltirilgan.(27%ni tashkil qiladi.)
Quyidagi 3-jadvalda Buxoro viloyati Buxoro shaharida fuqarolar tashabbusli jamg’armasi mablag’larining shakillanish manbalarini ko’rib chiqamiz.

**3-jadval**

**Buxoro viloyati Buxoro shaharida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari**

(ming so'm)

| **Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari** | | **2021-yil** | **2022-yil** | **2023-yil** |
|---|---|---|---|---|
| Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar | | | 10 128 429 | 13 699 979 |
| Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari | | | | |
| Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar | | 4 766 700 | 6 611 567.8 | 4 417 600 |
| Shu jumladan | Erkin qoldiq mablag'lari | 2 213 000 | 2 296 000 | 1 781 000 |
| | Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi | 2 553 700 | 3 459 200 | 2 636 600 |
| | Iqtisod qilingan mablag'lar | | 793 327 | 2 184 611.8 |
| Qo'shimcha ajratilgan | PQ-5250ga asosan | | | |
| | PQ-409ga asosan | | | 10 656 404.5 |
| | PQ-117ga asosan | | | 8 420 000 |
| **Jami ajratiladigan mablag'lar** | | **4 766 700** | **16 739 999.8** | **39 368 505 .3** |

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining, "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomi"da Tashabbusli byudjet loyihalari g'oliblarini moliyalashtirish tartibi keltirib o'tilingan.

Unga ko'ra quyidagilar tashabbusli budjet jarayonini moliyalashtirishga yo'naltiriladi: tuman (shahar)lar budjetlarining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 5 foizi; tuman (shahar) budjetlari qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizi; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining budjetlari qo'shimcha mablag'larining 30 foizi; tuman (shahar) budjetlarida ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ko'zda tutilgan mablag'lar; vazirlik va idoralarning tegishli davr uchun tasdiqlangan rivojlantirish dasturlari doirasida ko'zda tutilgan mablag'lar.

Buxoro shaharida mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar 2021-yil yo'q, 2022-yilda 10 128 429 so'mni, 2023-yilda bu ko'rsatkich 13 699 979 so'mni, tashkil qildi.(2022-yilga qaraganda 2023-yilda 3 571 550 so'm ko'p bo'lgan). Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'larn tahlil qiladigan bo'sak 2021- yilda 4 766 700 so'mni tashkil etgan bo'lsa 2022 –yil da 6 611 567.8 so'mni 2023-yilda 4 417 600 so'mni tashkil etgan .(2022-yilga nisbatan 2023-yil 25%ga kam ajratilgan)

Jami ajratilgan mablag'lar 2021-yil uchun 4 766 700 ming so'm 2022- yilda 16 739 999.8 so'm 2023- yilda 39 368 505 .3 ming so'mni tashkil etgan ( 2021-yildan 2022-yil ga 4 barobar ko'p mablag' ajratilgan 2023-yilda esa bu ko'rsatgich 10 barobarga oshgan).

**4-jadval**

**Buxoro viloyati Buxoro shaharida tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilhan loyihalar tarkibi**

| T/r | Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi) | Jami to'plagan ovozlar soni | Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'm) |
|---|---|---|---|
| **2021-yil** | | | |
| | Shahar ichki kuchalariga zamonaviy chiroqlar urnatish | 1242 | 350 000 000 |
| | Shahardagi maktablarga axlat urnalar urnatish | 1220 | 120 000 000 |
| | Shaharda bolalar uyingohlarini qurish | 977 | 250 000 000 |
| | Shahar maktablarining xojatxonalarini tamirlash | 863 | 300 000 000 |
| | Xuja Mushkin kuchasini asfaltlashtirish | 780 | 200 000 000 |
| | Shahardagi mahalla guzarlarini qurish va tashkil qilish xamda mahalla fuqarolar yig"inlari xududlarini obodonlashtirish va ko"kalamzorlashtirish | 723 | 100 000 000 |
| | Sheyxon MFYda 5-muyilish ko"cha yo"llarini tamirlash | 216 | 27 108 000 |
| | Sheyxon MFY 2-ko"cha yo"llarini tamirlash va piyodalar yo"llakiari qurish | 105 | 219 015 000 |
| | M. Iqbol ko"chasi tungi yoritgichlar urnatish | 56 | 50 000 000 |
| | M. Iqbol ko"chasiga chiqindi yashiklari o"rnatish va ko"chani obodonlashtirish | 49 | 58 000 000 |
| **2022-yil** | | | |
| | Shahardagi barcha maktablarga informatika kabinasi uchun komplekt kompyuterlar sotib olish. Xozirgi kunda IT –soxasida talab oshmoqda | 3406 | 298 182 ,9 |
| | Shahardagi umumtalim maktablarini kitoblar bilan boyitish. Yangi turdagi kitoblarni sotib olishimiz zarur | 3015 | 49 612,2 |
| | Buxoro shahar 4-son polikilinikaga Uzi skaner MINDRAY DC-80 Xinsight aparat olish kerak. | 2888 | 330 000.0 |
| | O"quv yiliga tayorgarlik ko"rish va maktab xududini obodonlashtirish maqsadida qurilish mollari ( kraska, oxak , sment, va boshqalar) sotib olish | 2144 | 146 483.6 |
| | Buxoro shahardagi 1-son polikilinika uchun fizoterapeya jixozlar sotib olish. | 2020 | 314 360.0 |
| | Buxoro shaxar 3-son polikilinika uchun fizoterapeya jixozlar sotib olish kerak. | 1656 | 314 360.0 |
| | Buxoro shahar Mirzo Ulug"bek MFY hududida joylashgan 15-son ixtisoslashtirilgan davlat | 1548 | 678 870.0 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | umumta‟lim maktabi hududidagi ochiq sport . | | |
| | Buxoro shahar maktabgacha maktabgacha talim tashkilotlari uchun stol stul va boshqa mebellar kerak. Bollalar va pedogoklarga yaxshi sharoit yaratish maqsadida. | 1525 | 498 224.0 |
| | Buxoro shaxar tibbiyot muassasalari uchun stol stul va boshqa jixozlar | 1454 | 349 441.0 |
| | Shahardagi 9va 37- umumta‟lim maktablarida o‟quvchi va o‟qtuvchilar uchun zamonaviy xojatxona qurish yoki tamirlash kerak | 1375 | 94 599.9 |
| 2023yil | | | |
| | Buxoro viloyati fizoterapiya va pulmonologiya markaziga davolanayotgan bemorlar uchun zamonaviy yuqori texnologik, kam jarohatlovchi amalyotlarini bajarish va bemorlar tezda reabilizatsiya bo‟lishi uchun | 8093 | 1100 000.0 |
| | Viloyat bollar ko‟p tarmoqli tibbiyot markaziga electron optik pengen qurilmasi (C-duga) xarid qilinsa viloyatda 617 ming 0-18 yoshgacha bulgan bolalar opasida ortopedik , urologic va kardiolik tug‟ma nuqsonlar bilan tug‟ulgan bolalarni yuqori texnologik jaroxlik | 7401 | 900 000.000 |
| | Respublika ixtisoslashtirilgan dermanotovenologiya va kosmetologiya ilmiy –amaliy marker Buxoro viloyati xududiy filyali maslahat polikilinikasini mukamal tamirlash. | 6918 | 1200 000.00 |
| | Buxoro shaxridagi 38-sonli umumtalim maktabi xududida 120 o‟rindiqli qo‟shimcha o‟quv binosi qurish | 6062 | 1212 787.00 |
| | Buxoro viloyati buxoro shahrida joylashgan Buxoro shahar tugrug kompleksi shifoxonasi axoliga sifatli tibbiy xizmat ko‟rsatish uchun Laparaskop tibbiy aparatiga extiyoj mavjud. | 5905 | 1200 000.00 |
| | Buxoro shahar ko‟p tarmoqli markaziy polikilinika modiy texnik | 5861 | 600 000.00 |
| | 6-son oliyaviy polikilinikaga tibbiy jixozlar sotib olish zarur. | 5723 | 500 000.00 |
| | Buxoro shahar 40-son umumtalim maktabi xududida eski bino urnida (snosga tushgan) engil kontruksiya faollar zali qurish. | 5398 | 1100 000.00 |
| | Buxoro shahar soliq texnikumi ochiq sport maydonini ta‟mirlash. | 5349 | 500 000.00 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | Buxoro shahar 5-son oilaviy polikilinika modiy – texnik bazasini rivojlantirish maqsadida tibbiy jixozlar ( raqamli rengen , UZI xamda fizoterapeftik va boshqa aparatlar) olib berish zarur. | 5315 | 952 000.00 |
| | Buxoro shahar tibbiyot birlashmasi diyagnostika va labaratoriyasi bo‟limiga tibbiy jixozlar sotib olish. | 5012 | 1200 000.00 |

Buxoro viloyati Buxoro shaharida tashabbusli budjetlashtirish natijasida 2021-yili jami 10 ta loyiha g'olib deb topilgan va ularning ichida eng ko'p ovoz to'plagan loyiha "Shahar ichki kuchalariga zamonaviy chiroqlar urnatish" ovozlar soni 1242ta ovoz bilan 1- o'rinda ajratilgan mablag' 350 000 000 so'm pul mablag'lari sarflandi, eng kam mablag' sarflangan loyiha Sheyxon MFYda 5-muyilish ko‟cha yo‟llarini tamirlash bo'lib 216 ta ovoz bilan g'olib bo'lgan bunga ajratilgan mablag' 27 108 000 so'm. 2022-yilda "Tashabbusli byudjet" loyihasi g'olibi deb topilgan, loyihalarni moliyalashtirilgan bundan eng ko'p ovoz to'plagan loyha deb "Shahardagi barcha maktablarga informatika kabinasi uchun komplekt kompyuterlar sotib olish. Xozirgi kunda IT –soxasida talab oshmoqda " loyihasi 3406 ta ovoz bilan g'lib bo'lgan loyha uchun ajratilgan mablag' 298 182,9 so'm pul mablag'lari yo'naltirilgan, eng kam ovoz bilan "Shahardagi 9va 37- umumta‟lim maktablarida o‟quvchi va o‟qtuvchilar uchun zamonaviy xojatxona qurish yoki tamirlash kerak" loyihasi 1375 ta ovoz bilan g'olib bo'lgan yo'naltirilgan mablag' 94 599.9 so'm, 2023-yilda ham eng yuqori ovozlar soni bilan g'olib bo'lgan loyiha "Buxoro viloyati fizoterapiya va pulmonologiya markaziga davolanayotgan bemorlar uchun zamonaviy yuqori texnologik" jihozlar uchun g;olib bo'lgan bunda to'lagan ovozlar soni 8093 ta ovoz bilan g'olib bo'lgab yo'naltirilgan mablag'1 100 000 000 so'm miqdordagi pul mablag'lari maqsadli yo'naltirilgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki "Tashabbusli byudjet" loyihalarining g'olib deb topilganlar, yo'l tamiriga va umumta'lim maktablari binolarini ta'mirlash sohasiga, shu jumladan .

Xulosa qilib aytganda, Tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda. Buxoro viloyati Buxoro shaharida ko'zga tashlangan muammolar dan biri bu sog'liqni saqlash ekani ko'rinib turibdi, shaharda bunga talab yuqoriligini e'tiborga olsak faqat gina tashabusli byudjet loyihasiga emas balki davlat dasturiga ham kiritish kerak chunki sog'liqni saqlash sohasida oqsash holaati kamchiliklar ko'zga tashlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Вахобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:"Шарк. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent:"Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ "Молия: умумдавлат молияси". Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:"Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари-Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary …, 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Махаллий бюджетлар мустакиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G'aybullayev O, O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo 'llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси" илмий электрон журнали. 2020.

25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Masharipov I.B. MODERNIZATION OF THE ELECTORAL SYSTEM IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY. The Way of Science International scientific journal. 2020. 6 (76)